

ZARAFSHON IQTISODIY RAYONI

Ibragimova Zulayho Sobirovna

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchi

Ismatulloyeva Gulnoz Xolmurod qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Quyi Zarafshon okrugi shu nom bilan ataluvchi daryoning quyi qismida joylashib, o‘z ichiga Buxoro va Qorako‘l vohalarini oladi. Okrug sharqda kengligi 8 — 10 km bo‘lgan Xazar yo‘lagi orqali O‘rta Zarafshon okrugidan ajralib turadi. Okrug shimol va g‘arbdan Qizilqum okrugi, janubi g‘arbdan Sandiqli qumligi orqali Turkmaniston Respublikasi, sharqdan Qashqadaryo okrugi bilan chegaralanadi. Bu yerda chegara Azkamar, Quyimozor, Jarqoq balandliklari orqali o‘tadi. Quyi Zarafshon okrugi tektonik botiqda joylashib, negizi paleozoy erasi ohaktosh slaneslaridan iborat bo‘lib, uning ustini mezozoy va kaynazoy eralarining cho‘kindi jins hamda mergellari, gillari va qumtoshlari qoplab olgan. Mezozoy erasining yura va bo‘r davr jinslari (ohaktosh, dolomit va boshqa) ko‘proq okrugning sharqida joylashgan balandliklarda uchraydi. Quyi Zarafshon okrugi yerusti tuzilishi jihatidan O‘rta Zarafshondan farqlanadi. Chunki O‘rta148 Zarafshon okrugini ikki tomonidan tog‘lar o‘rab olgan bo‘lsa, aksincha, Quyi Zarafshon Xazar yo‘lagidan o‘tgach, janubi -g‘arbga qarab kengayib, pasayib, Buxoro va Qorako‘l vohasini hosil qiladi. Buxoro vohasini shimoli g‘arbdan Qizilqum o‘rab olsa, sharqda Qiziltepa (362 m), Quyimozor (216 m), Qumsulton kabi balandliklar, janubi g‘arbdan Qorako‘l balandligi o‘rab olgan.

Iqtisodiy rayon Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari hududidan iborat. Maydoni kattaligi jihatidan Quyi Amudaryo iqtisodiyidan keying o‘rinda turadi. Hududining asosiy qismi tekislik (Qizilqum cho‘lidan) iborat. Bu rayon qorako‘lchilik uchun ahamyatlidir. Tekislik markazida Tomditog’ (922m), Bo‘kantog’ Ovminzatog’, Quljuqtog’ kabi tog‘lar qad ko‘tarib turadi. Tekislikning sharqida Nurota, Oqtog’, Qoratog’larning G‘arbiy qismi joylashgan. Bular ham iqtisodiyotda muayyan kasb etadi.

Zarafshon vodiysining quyi qismlari obikor dehqonchilik uchun qulay. Iqtisodiy rayon iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yozi issiq va quruq. O‘simplik o‘simplik o‘sadigan davr haroratining yig‘indisi 3000C°ni, janubda esa 5000C ni tashkil etadi. Yog‘in nihoyatda kam, yillik yog‘in miqdori 100-300mm. Qor qoplami yupqaligi yaylov chorvachiligi uchun foydali. Tez tez garmsel shamoli xuruj qilib, o‘simpliklarni qovjiratib ketadi.

Suv muammosini hal qilish uchun Zarafshon daryosida Amu-Qorako‘l va Amu-Buxoro kanallari mavjud. Kanalda esa Quyimozor suv ombori ishga tushirilgan. Qudratli nasoslar esa suvni 64 metr balandlikdagi kanallarga ko‘tarib beradi. Suv omborga va undan kanallar orqali Buxoro vohasini sug‘orishga sarflanadi.

Zarafshon (tojikcha: Зарафшон; forscha: - زرافشان - zar — oltin, afshon — sochuvchi; **Mastchoh**) — Tojikiston va O‘zbekistondagi daryo Uzunligi 877 km, havzasining mayd. 41860 km², shundan tog‘li qismi 17710 km², qolgani tog‘ oldi qirlari va tekislikka to‘g‘ri keladi Turkiston, Zarafshon va Olay tog‘

tizmalari birikkan joy — Mastchoh (Ko'ksuv) tog‘ tugunidagi Zarafshon muzligidai Mastchoh daryosi nomi bilan boshlanadi. Boshlanish joyidan qariyb 189 km quyida, chapdan Fondaryo qo'shiladi va 3. nomini oladi. Zominsuvga muzliklar va buloqlardan boshlanadigan 4200 ga yaqin irmoq quyiladi. Eng yiriklari — Fondaryo, Qo'shtutdaryo, Mag'iyondaryo. Tojikiston hududiga qarashli yuqori oqimida 3. Turkiston va Zarafshon tog‘ tizmalari oralig‘ida yon bag‘irlari baland va tik ko'tarilgan, ko'pchilik joylarida dara va tangilardan iborat tor vodiyya juda tez oqadi.

Zarafshon iqtisodiy rayonida xilma-xil mineral boyliklar ko'p.Jumladan:Gazli,Uchqir,Qorovulbozor,Sortosh tabiiy gaz konlari,Kogon yaqinida neft koni,Muruntov oltin koni,Ingichka va Zarmitanda nodir metal konlari,oltingugurt konlari,qurilish materiallari va mineral bo'yoqlari mavjud.Bu boyliklar iqtisodiy rayonda energetika,rangli metallurgiya kimyo hamda qurilish materiallari sanoatlarini rivojlantirish uvhun baza hisoblanadi

Aholisi.Ushbu iqtisodiy rayon aholisi ,uning ko'payish sur'ati mamlakat aholisining o'rtacha o'sishiga yaqinlashadi.Aholi hududlar bo'ylab notejis joylashgan.Ayniqsa,cho'l mintaqasida o'ta siyrak joylashgan.

Xo'jaligi va uni hududiy tashkil etilishi.Iqtisodiy rayonda agrosanoat majmuasi tarkib topib bormoqda.Sanoati esa ko'ptarmoqlidir.Zarafshon iqtisodiy rayonining

1. Elektroenergetika
2. Rangli metallurgiya
3. Neftni qayta ishslash
4. Kimyo-gaz-kimyo
5. Mashinasozlik
6. Qurilish materiallari
7. Yengil sanoat
8. Oziq-ovqat kabi sanoat tarmoqlari rivojlanmoqda.

Bu iqtisodiy rayon hosil etilayotgan elektr energiya miqdoriga ko'ra Toshkent va Mirzacho'l iqtisodiy rayonlaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. Elektr quvvati, asosan, Navoiy IESidan olinmoqda, IES tabiiy gaz bilan ishlaydi. Gaz sanoati bo'yicha rayon yaqin yillargacha O'zbekistonda yetakchi o'rinda edi.

Qashqadaryodagi Sho'rtan gaz koni ishga tushirilgach, ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Kimyo sanoati tabiiy gaz va boshqa mineral xomashyoga tayanadi. Zarafshon hududiy ishlab chiqarish majmuyining asosiy tarmoqlaridan biri yengil sanoatdir.

Qishloq xo'jaligi paxtachilik va qorako'lchilikdan iborat. Yurtimizdag'i yaylovlarining yarmidan ko'pi shu rayonda. Yaylovlar mahsuldarligini oshirish uchun fitomeliorativ tavsiyalar tayyorlovchi 6 ta o'rmon xo'jaligi va 1 ta o'rmon-melioratsiya stansiyasi ishlab turibdi. O'zbekistondagi qorako'l qo'ylarning va tuyalarning yarmidan ko'pi shu iqtisodiy rayonda boqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Payoz Musayev,Jahongir Musayev



2. „O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”, „Sharq nashriyoti” P. Baratov — geografiya fanlari nomzodi, professor;
3. M. Mamatqulov — geografiya fanlari doktori, professor.